

## AJRIQ O'SIMLIGINING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

*Erkinova Intizor Jasur qizi*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmatsiya fakulteti talabasi.*

*Baymurodov Esan Suyunovich*

**Ilmiy rahbar:** *Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmakognoziya va farmasevtik texnologiya kafedراسي assistenti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ajriq o'simligining tibbiyotdagi ahamiyati, biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda shifobaxsh xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ajriq bug'doydoshlar oilasiga mansub ko'p yillik dorivor o'simlik bo'lib, xalq tabobati va fitoterapiyada keng qo'llaniladi. Maqolada ajriq o'simligining tarkibida uchraydigan biologik faol moddalar – flavonoidlar, organik kislotalar, efir moylari, vitaminlar va mineral moddalar organizmga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ajriq o'simligining siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, qonni tozalovchi hamda modda almashinuvini yaxshilovchi xususiyatlari ilmiy va amaliy jihatdan yoritilgan. Uning buyrak va siydik yo'llari kasalliklari, shishlar, ovqat hazm qilish tizimi buzilishlari hamda ayrim yallig'lanish kasalliklarini davolashda qo'llanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ajriq o'simligidan tayyorlanadigan dorivor shakllar-damlama, qaynatma va o'simlik choylari haqida ham so'z yuritilib, ularning inson salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** flavonoidlar, efir moylari, mineral moddalar, siydik haydovchi, organik kislotalar, biologik faol moddalar, dorivor damlama, qaynatma, modda almashinuvi, shifobaxsh o'simliklar, yallig'lanishga qarshi ta'sir, o'simlik choylari.

## THE MEDICAL SIGNIFICANCE OF THE AJRIQ PLANT

*Erkinova Intizor Jasur qizi*  
*Student of the Faculty of Pharmacy*  
*Samarkand State Medical University*

*Baymurodov Esan Suyunovich*

*Scientific supervisor: Assistant of the Department of Pharmacognosy and*  
*Pharmaceutical Technology*  
*Samarkand State Medical University*

## **Abstract**

This article provides detailed information on the medical significance, biological characteristics, chemical composition, and therapeutic properties of couch grass (*Elytrigia repens*). Couch grass is a perennial medicinal plant belonging to the Poaceae family and is widely used in traditional medicine and phytotherapy.

The article analyzes the biologically active compounds found in couch grass, including flavonoids, organic acids, essential oils, vitamins, and mineral substances, as well as their positive effects on the human body. In addition, the plant's diuretic, anti-inflammatory, antimicrobial, blood-purifying, and metabolism-enhancing properties are described from both scientific and practical perspectives.

Information is also provided on its use in the treatment of kidney and urinary tract diseases, edema, digestive system disorders, and certain inflammatory conditions. Furthermore, the article discusses medicinal forms prepared from couch grass—infusions, decoctions, and herbal teas—and highlights their importance in maintaining human health and preventing diseases.

**Keywords;** flavonoids, essential oils, mineral substances, diuretics, organic acids, biologically active compounds, medicinal infusion, decoction, metabolism, medicinal plants, anti-inflammatory effect, herbal teas

## **ЗНАЧЕНИЕ РАСТЕНИЯ АДЖРИК В МЕДИЦИНЕ**

*Эркинова Интизора Жасуровна*

*студентка фармацевтического факультета*

*Самаркандского государственного медицинского университета*

*Баймуродов Эсан Суюнович*

*Научный руководитель: ассистент кафедры фармакогнозии и  
фармацевтической технологии*

*Самаркандского государственного медицинского университета*

### **Аннотация**

В данной статье представлена подробная информация о медицинском значении, биологических особенностях, химическом составе и лечебных свойствах пырея ползучего (*Elytrigia repens*). Пырей является многолетним лекарственным растением семейства злаковых (*Poaceae*) и широко применяется в народной медицине и фитотерапии.

В статье проанализированы биологически активные вещества, содержащиеся в пырее, включая флавоноиды, органические кислоты, эфирные масла, витамины и минеральные вещества, а также их положительное влияние на организм человека. Кроме того, научно и практически обоснованы его мочегонные, противовоспалительные, антимикробные, кровоочистительные и улучшающие обмен веществ свойства.

Также приведены сведения о применении растения при заболеваниях почек и мочевыводящих путей, отеках, нарушениях пищеварительной системы, а также при некоторых воспалительных заболеваниях. Кроме того, рассмотрены лекарственные формы, приготавливаемые из пырея — настои,

отвары и травяные чаи, и освещено их значение в сохранении здоровья человека и профилактике заболеваний.

### **Ключевые слова**

флавоноиды, эфирные масла, минеральные вещества, мочегонные средства, органические кислоты, биологически активные вещества, лекарственный настой, отвар, обмен веществ, лекарственные растения, противовоспалительное действие, травяные чаи

### **KIRISH**

Dorivor o'simliklar insoniyat tarixida qadim zamonlardan beri muhim o'rin egallab keladi. Insonlar dastlabki davrlardan boshlab turli kasalliklarni davolashda tabiatdagi o'simliklardan keng foydalangan. Dorivor o'simliklar tarkibida biologik faol moddalar mavjud bo'lib, ular inson organizmiga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bugungi kunda ham o'simliklardan olinadigan dorivor moddalar tibbiyot va farmatsiya sohasida keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy tibbiyotda fitoterapiya- ya'ni o'simliklar yordamida davolash usuli alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ajriq yer yuzining ko'plab hududlarida, jumladan Markaziy Osiyo, Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida keng tarqaldan. Ajriq asosan dalalarda, yaylovlarda, bog'larda, yo'l chetlarida va sug'oriladigan yerlarda o'sadi. Uning ildiz tizimi kuchli rivojlangan bo'lib, yer ostida keng tarqaladi va tez ko'payish xususiyatiga ega. Xalq tabobatida ajriqning ildizi va yer ustki qismlardan tayyorlangan damlama hamda qaynatmalar turli kasalliklarni davolashda qo'llanilgan. Ayniqsa, ajriq siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, qonni tozalovchi hamda modda almashinuvini yaxshilovchi xususiyatlari bilan mashhur. Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur asari Tib qonunlarida ajriq ildizi va barglarini qonni tozalovchi, siydik haydovchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida tavsiflanang. Shuningdek, ajriqning organizmni mustahkamlovchi va shishlarni kamaytiruvchi xususiyatlari ham qayd etilgan.

## **Ajriqning tarkibi va ozuqaviy qiymati**

Ajriq nafaqat dorivor dorivor xususiyatlarga ega, balki uning tarkibi yuqori biologik va ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan moddalar bilan boyitilgan. O'simlikning ildizi, poyasi va barglari turli biologik faol moddalar, vitaminlar, minerallar va boshqa foydali komponentlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga ajriq chorva uchun ham yuqori sifat ozuqa manbai hisoblanadi.

## **Tibbiyotda qo'llanilishi**

Siydik haydovchi(diuretik)xususiyati: Ajriq ildizi va barglaridan tayyorlangan damlama siydik ajralishini oshiradi, buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida yordam beradi. Shu sababli u buhronli peshob chiqarish, siydik yo'llari infeksiyalari va buyrak toshlarini kamaytirishda qo'llaniladi.

Yallig'lanishga qarshi ta'sir: Ajriq tarkibidagi flavonoidlar va saponinlar yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli u shishlar, bo'g'imlar yallig'lanishi va jarohat joylaridagi yallig'lanish holatlarini kamaytirishda ishlatiladi.

Qonni tozalash va modda almashinuvi yaxshilash: Ajriq o'simligi qonni tozalash, toksinlarni chiqarish va metabolizm jarayonlarini rag'batlantirishda foydali. Xalq tabobatida ajriq damlamasi organizmni tozalovchi vosita sifatida , shuningdek teri kasalliklarini kamaytirishda qo'llaniladi.

Jigar va oshqozon faoliyatini qo'llab-quvvatlash: Ajriq ildizidan tayyorlangan qaynatmalar jigar faoliyatini yaxshilash , ovqat hazm qilish rag'batlantirish va ich qotishi bilan bo'g'liq muammolarni kamaytirishda ishlatiladi.

Shishlarni kamaytirish( anti-edematous ta'sir) Ajriqning ildizi va barglaridan tayyorlangan damlamalar organizmda suyuqlik to'planib qolgan hollarda, ya'ni shishlar paydo bo'lganda foydali hisoblanadi.

Qon tomir va yurak faoliyati qo'llab-quvvatlash: Ajriq tarkibidagi kaliy va flavonoidlar qon bosimni tartibga solishga, yurak va tomir faoliyatini

mustahkamlashga yordam beradi. Shu sababli u yumshoq qon bosimni regulyatori va yurak faoliyatini qo'llab -quvvatlovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Antimikrob va antivirus xususiyatlar: Efir moylari va saponinlar tufayli ajriq o'simligi bakteriya va viruslarga qarshi tabiiy vosita sifatida ishlatiladi. Bu xususiyati bilan u siydik yo'llari infeksiyalari va ba'zi teri kasalliklarda foydali hisoblanadi.

### **Qo'llashga qarshi ko'rsatmalar**

**Buyrak yetishmovchiligi** - Ajriq kuchli siydik haydovchi bo'lgani uchun og'ir buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda qo'llash xavfli.

**Siydik yo'llar tiqilishi**- Siydik yo'llarida tosh yoki yallig'lanish bo'lsa, ajriq damlamasi og'riqni kuchaytirishi mumkin.

**Homiladorlik va emizish davri**- Ajriq homilaga zarar yetkazishi yoki sut ishlab chiqarishni kamaytirishi mumkin. Shu sababli faqat shifokor tavsiyasi bilan ishlatiladi.

**Past qon bosimi (gipotenziya)**-Ajriq qon bosimini pasaytiruvchi xususiyatga ega, shuning uchun gipotonik bemorlar uni ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak.

**Allergik reaksiyalar** - Ajriqqa allergiyasi bo'lganlarga teri qizarishi, toshma, qichishish yoki shish paydo bo'lishi mumkin.

Dori-darmonlar bilan o'zaro ta'sir-diuretiklar, yurak dorilari yoki qon bosimini pasaytiruvchi vositalar bilan birga ishlatilganda nojo'ya ta'sirlar paydo bo'lishi mumkin.

### **Ajriqni qanday tanlash va saqlash kerak**

Ajriq tanlashda uning tashqi ko'rinishiga e'tibor berish kerak. Sifatli ajriqning barglari va poyalari tabiiy yashil rangda, ildizlari esa och jigarrang yoki sarg'ish rangda bo'ladi. O'simlik haddan tashqari qoraygan, rangsiz yoki chirigan bo'lmasligi kerak. Shuningdek, ajriq toza, begona o'simliklar aralashmagan va zararkunandalar bilan zararlanmagan bo'lishi lozim. Uning hidiga ega bo'ladi, agar

mog'or yoki chirish hidi sezilsa, bunday o'simlikdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Ajriq yig'ib olingandan so'ng uni to'g'ri quritish zarur. O'simlik odatda soyali, quruq va yaxshi shamollatiladigan joyda quritiladi. To'g'ridan to'g'ri quyosh nuri ta'sirida quritish tavsiya etilmaydi, chunki bu o'simlik tarkibidagi foydali moddalar miqdorini kamaytirishi mumkin.

Quritilgan ajriqni saqlashda ham muayyan qoidalarga rioya qilish lozim. Uni qog'oz paketlar, mato xaltalar yoki yopiq shisha idishlarda saqlash maqsadga muvofiqdir. Saqlash joyi quruq, salqin va qorong'i bo'lishi kerak. Namlik yuqori bo'lgan joylarda o'simlik tez buzilishi yoki mogorlanishi mumkin.

To'g'ri quritilgan va yaxshi sharoitda saqlangan ajriq odatda 1-2 yil davomida o'zining dorivor xususiyatlarini saqlab qoladi. Shu muddatdan keyin uning biologik faol moddalar kamayib boradi, shuning uchun yangi xomashyo ishlatish tavsiya etiladi.

## **Xulosa**

Ajriq o'simligi dorivor xususiyatlarga boy bo'lgan qimmatli tabiiy manbalardan biridir. Bu o'simlik qadim zamonlardan buyon xalq tabobatida keng qo'llanib kelinadi va inson salomatligini saqlashda muhim o'rin tutadi. Ajriqning ildizi, poyasi va barglari tarkibida flavonoidlar, saponinlar, polisaxaridlar, vitaminlar hamda turli mineral moddalar mavjud bo'lib, ular organizmning normal faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Ajriq o'simligi tibbiyotda asosan siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, qonni tozalovchi hamda modda almashinuvini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. U buyrak va siydik yo'llari kasalliklari, shishlar, ayrim ovqat hazm qilish tizimi muammolari hamda organizmni umumiy mustahkamlashda foydali hisoblanadi. Shu sababli ajriq o'simligi xalq tabobati bilan bir qatorda zamonaviy fitoterapiyada ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ajriqning dorivor xususiyatlari qadimiy tibbiy manbalarda ham qayd etilgan. Xususan, buyuk tabib Abu Ali ibn Sino

o'zining mashhur asari Tib qonunlarida ajriqni qonni tozalovchi, siydik haydovchi va ayrim kasalliklarni davolashda foydali o'simlik sifatida ta'riflangan. Bu esa ajriqning qadimdan shifobaxsh o'simlik sifatida qadrlanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ajriq o'simligini dorivor maqsadda ishlatishda uning sifatini to'g'ri tanlash, to'g'ri quritish va saqlash qoidalariga amal qilish muhimdir. O'simlikni me'yorda va ehtiyotkorlik bilan qo'llash uning foydali ta'sirini yanada oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Libizov N.I., Zelemenskiy S.E -Sumax skumpiya. M., 1953
2. Mixaylov A.N- Ximiya dubyashix veshestv i protsessov dubleniya. M., 1953
3. Mashkovskiy M.D- Lekarstvennye sredstva. CH.I. i II.M., "Meditsina" 1993
4. Muravyova D.A- Farmakognoziya. M., "Meditsina", 1991.
5. Xolmatov. X.X., Ahmedov U.A Farmakognoziya. Toshkent, Abu Ali ibn Sino, 2005
6. N.D. Kodirov, M.B. Usmonova, G.R. Xasanova, S.M. Olimov.- Farmakognoziya asoslari. I-qism: o'quv qo'llanma. Samarqand: Tibbiyot Ko'zgusi, 2023. -136b
7. N.D. Kodirov, M.B. Usmonova, G.R. Xasanova, S.M. Olimov.- Farmakognoziya asoslari. I-qism: o'quv qo'llanma. Samarqand: Tibbiyot Ko'zgusi, 2023. -156b
8. A.A. Sultanov -Fitoterapiya asoslari. Toshkent, 2012.
9. N.K. Komilov- Dorivor o'simliklar va ularning xususiyatlari. Toshkent, 2010.
10. Makarchikov, A.F., Lakaye, B., Gulyai, I.E., Czerniecki, J., Coumans, B., Wins, P., ... & Bettendroff, L. Thiamine triphosphate and thiamine triphosphatase activities: from bacteria to mammals. Cellular and Molecular Life Sciences CMLS, 60, (2003) 1477-1488
11. Boymurodov, E.S (2024). Preparation of Raw Materials from Medicinal Plant Parts. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 3(2), 114-117.
13. Meliqulov, O.J., Kodirov, N.D., & Baymuradov, E.S (2022). 4-xlor-5,6-dimetiltieno (2,3-d) pirimidinning to'yingan geterosiklik birikmalari bilan reaksiyasi. Ta'lim fidoyilari, 18(5), 285-288.

14.Qodirov, N.D.,Qo'yliyeva, M.U.,&Baymurodov.E.S(2022). Dorilar haqida tushuncha, farmakologik xossalari, saqlash uchun sharoit yaratish usullari.Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,1(8) 580-586.